



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№1



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, yanvar.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdulkarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

INSON KAPITALINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	52
Dilnoza Ruziqulova Xoliqovna	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI BAHOLASH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.....	56
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBA	60
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	
ОЛИГОПОЛИЯ И ТЕОРИЯ ИГР	64
Камилова Наргиза Абдукаххоровна, Наимов Самандар Раджабович	
ЦИФРОВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ: НОВАЯ ЭРА ЭФФЕКТИВНОСТИ	67
Каракулов Фарход Зайпудинович	
MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINING INNOVATSION YECHIMLARI	72
Ergashev Jamshid Axmadaliyevich	
MOLIYAVIY AKTIVLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TIJORAT BANKLARIDA ULARNING SIFAT MEZONLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	77
Iskandarova Munisa Hasan qizi	
MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI	82
Xojiyev Jaxongir Dushabayevich, To'xtayev Kamol Po'latovich	
MARKETING VA BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA TAYYOR KIYIMLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	87
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
NAMANGAN VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA MODERNIZATSIYA JARAYONLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI	93
Odilova Malika Abdushukur qizi	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	98
Toshtemirov Xojjakbar Qahramon o'g'li	
ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СТРАНЫ	103
Артикова Шохида Ильясовна	
MINTAQALARDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI INNOVATSION SALOHİYATINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	107
Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich	
THEORETICAL ASPECTS OF SERVICES IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S ECONOMIC TRANSFORMATION	114
Umidjon Normurodov, Qodirov Yusufbek Suyunbek ugli	
РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИЯТИЙ ОБУВНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРОВАНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИННОВАЦИЙ	120
Расулов Нозимжон Набиджонович	
QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING JORIY QILINISHI VA UNI OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI.....	125
Saburov Jumanazar Saliyevich	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA ICHKI BOZORNI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI	129
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Убайдуллаев Худоёр Бахтиёр угли	



MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARI SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI	141
Xayitov Rustam Burxonovich	
BARQAROR MOLIYALASHTIRISH KONSEPSIYASIGA MUVOFIQ "YASHIL" INVESTITSIYALARNI RIVOJLANTIRISH.....	146
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH.....	151
Dushamov Maxmudjon Maksudbekovich	
HUDUDLARDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI	159
Ibodova Dilsora Ibodovna	
INVESTITION PORTFELLARNI SHAKLLANTIRISH, BAHOLASH VA BOSHQARISH.....	165
Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Abdullaeva Shohista	
KICHIK XIZMATLAR FAOLIYATINI RASMIYLASHTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI KO'RSATKICHLARINI OSHIRISH.....	170
Xalimbetov Farxad Bagibekovich	
MONOPOLIYAGA QARSHI BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH: XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUVLAR.....	173
Akbarov Jasur Ikromjon o'g'li	
СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ДИНАМИКИ И СЕЗОННОСТИ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	179
Салиходжаева Умида Абдуакбар кизи	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI TALABNI PROGNOZLASHNING CHAKANA MARKETING INNOVATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI ROLI	186
Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi	
TEMIR YO'L YO'LOVCHI TASHISH KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH MODELLARI	200
Eshboyev Ulug'bek Farxodovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY HISOBOT VA AUDIT METOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH	205
Zufarova Zilola Raxim qizi	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILLARI	216
Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich	
MULKIY SOLIQLARNING MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI TA'SIRINI BAHOLASH.....	222
Aliyarov Olim Abdug'aparovich	
AVTOMOBIL SANOATIDA MAHSULOT BILAN BOG'LIQ XIZMATLAR TASNIFI	231
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
UY-JOY FONDINI SAMARALI TASHKIL QILISH VA TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI.....	236
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
TURIZMNI IQTISODIYOTDA TO'G'RIDAN TO'G'RI TA'SIRINI STATISTIK TADQIQOTI.....	241
Jumanova Zilola Tuychiyevna	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR BANK EKOTIZIMLARI VA O'ZBEKISTON BANK EKOTIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA QIYOSIY TAHLILI	248
X.R. Aliyev	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM TIZIMI UCHUN DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA BOSHQARUV METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	254
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	
OROL BO'YI MINTAQASIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI INNOVATSION BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	259
Umarova Xusnora Dilmurod qizi	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHCHI KUCHIDAN SAMARALI FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	264
Xolmurotov Salimbek Eshbekovich	
INNOVATSION KLASTERLARNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMI.....	269
Quliyev Begimqul Melikovich	
ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	276
Ахмедов Самандар Сайфуллоевич	
АГРОЭКОТУРИЗМ КАК НАПРАВЛЕНИЕ ДИВЕРСИФИКАЦИИ ЭКОНОМИКИ СЕЛЬСКИХ ТЕРРИТОРИЙ УЗБЕКИСТАНА.....	281
Хайдаров Ойбек Зоирович	
THE IMPACT OF DIGITALIZATION ON SERVICE QUALITY AND CUSTOMER SATISFACTION IN THE HOUSEHOLD SERVICE SECTOR: EMPIRICAL EVIDENCE FROM SAMARKAND REGION	287
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Yuldosheva Zulfizar Sayfullayevna	
DEVELOPMENT OF INTERACTIVE MODELING METHODS FOR THE SYNTHESIS OF INTELLIGENT CONTROL SYSTEMS FOR TECHNICAL OBJECTS IN THE DIGITAL ECONOMY	293
Mamutova Aygul Kalmurzaevna	
TIJORAT BANKLARIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISH MASALALARI.....	298
Abdurazakova Nasiba Sultanovna	
YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI TRANSFORMATSIYASI VA UNING MOLIYAVIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI.....	303
Tashmuxamedova Yayra Atxamovna	
ZAMONAVIY AXBOROT TIZIMLARI ORQALI SOLIQ QARZDORLIGINI UNDIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA TAHLIL	308
Maxmadustov Jalol Maxmadustovich	
TA'LIM MIGRATSIYASI VA INTEGRATSIYA KO'RSATKICHLARINI STATISTIK TAHLILI: YEVROPA ITTIFOQI (SIRIUS) TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	314
Abdullayeva Gulhayot Shuhratovna	
HUDUDIIY SANOAT KORXONALARI FAOLIYATINI KO'P OMILLI STATISTIK TAHLIL ETISHDAGI ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARDAN FOYDALANISH YO'LLARI	319
Tag'oyev Feruz Yorqulovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI HUDUDIIY INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH: QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA TAHLIL VA TAVSIYALAR.....	326
Egamberdiev Abbosxon Sherali o'g'li	
KICHIK BIZNESDA INNOVATSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISH VA RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI	331
Nurullayev Baxrom Botirovich	



KICHIK BIZNESDA INNOVATSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISH VA RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI

Nurullayev Baxrom Botirovich

Urganch RANCH texnologiya universiteti, Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

ORCID: 0009-0004-0597-4362

E-mail: bahromnurullayev@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda kichik biznesda innovatsion faoliyatni tashkil etish va uni rag'batlantirish mexanizmlarining nazariy-metodologik hamda amaliy jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda innovatsion jarayonlarni samarali joriy etish, davlat va xususiy sektor qo'llab-quvvatlash choralari, moliyaviy va nomoliyaviy stimullarning o'rni yoritilgan. Shuningdek, raqobatbardoshlikni oshirish va innovatsion salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, innovatsion faoliyat, rag'batlantirish mexanizmlari, davlat qo'llab-quvvatlashi, innovatsion salohiyat, raqobatbardoshlik, texnologik rivojlanish, innovatsion infratuzilma, startap loyihalar, ventchur kapital.

Abstract. The article analyzes the theoretical, methodological, and practical aspects of organizing and stimulating innovative activity in small businesses under modern economic conditions. The study examines public and private support mechanisms and the role of financial and non-financial incentives. Practical recommendations aimed at enhancing innovative potential and competitiveness of small business entities are proposed.

Key words: small business, innovative activity, incentive mechanisms, state support, innovative potential, competitiveness, technological development, innovation infrastructure, startup projects, venture capital.

Аннотация. В статье рассмотрены теоретико-методологические и практические аспекты организации и стимулирования инновационной деятельности в малом бизнесе в современных экономических условиях. Проанализированы механизмы государственной и частной поддержки, а также роль финансовых и нефинансовых стимулов. Разработаны практические рекомендации по повышению инновационного потенциала и конкурентоспособности субъектов малого бизнеса.

Ключевые слова: малый бизнес, инновационная деятельность, механизмы стимулирования, государственная поддержка, инновационный потенциал, конкурентоспособность, технологическое развитие, инновационная инфраструктура, стартап-проекты, венчурный капитал.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda iqtisodiy o'sishning ekstensiv omillari o'z ahamiyatini yo'qotib, ularning o'rnini intensiv va innovatsion rivojlanish modellari egallamoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, mamlakat yalpi ichki mahsulotida (YIM) yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushining oshishi bevosita kichik biznes subyektlarining innovatsion faolligiga bog'liq. Kichik biznes o'zining ixchamligi, boshqaruv tizimining moslanuvchanligi hamda bozor o'zgarishlariga tezkor munosabat bildira olish xususiyati bilan iqtisodiyotda "innovatsiyalar generatori" vazifasini bajaradi.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning strategik maqsadlaridan biri iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishdan iborat. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Ilm-fan va innovatsiyasiz hech qanday natijaga erishib bo'lmaydi"¹. Shu nuqtayi nazardan, kichik tadbirkorlik subyektlarini nafaqat an'anaviy xizmat ko'rsatish yoki savdo sohalarida, balki yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi innovatsion yo'nalishlarda ham ko'paytirish davlat ahamiyatiga molik vazifa hisoblanadi.

1 O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi. <https://lex.uz>



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznesda innovatsion faoliyatni tashkil etish va rag'batlantirish mexanizmlarini o'rganishga bag'ishlangan adabiyotlar, asosan, uch yo'nalishda jamlanadi:

- 1) innovatsiyaning iqtisodiy mohiyati va milliy innovatsion tizimlar;
- 2) kichik biznesning innovatsion rivojlanishdagi roli va mavjud cheklovlar;
- 3) rag'batlantirish mexanizmlari — moliyaviy, institutsional hamda raqamli/infratuzilmaviy vositalar.

Innovatsiyalarni iqtisodiy rivojlanishning "ichki manbai" sifatida talqin qiluvchi yondashuvlar kichik biznesning innovatsion faolligi masalasiga mustahkam nazariy asos yaratadi. Ushbu yondashuvlarda innovatsiya faqat yangi mahsulot yaratish bilan cheklanmay, balki boshqaruv, bozor, tashkiliy va texnologik jarayonlarda yangiliklarni ishlab chiqish va joriy etish jarayoni sifatida qaraladi. O'zbekiston iqtisodiy adabiyotlarida ham innovatsiyalarning iqtisodiy o'sish va tarkibiy o'zgarishlarga ta'siri, shuningdek, innovatsion siyosatning institutsional roli keng muhokama qilinadi. Xususan, Djalilova innovatsiyalar iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va samaradorlikni oshirishda muhim omil ekanini tahliliy yondashuv asosida asoslab beradi.

Shu bilan birga, innovatsion rivojlanish davlat siyosati darajasida ham muayyan strategik maqsadlar bilan chambarchas bog'langan. O'zbekistonda innovatsion rivojlanish bo'yicha qabul qilingan strategik hujjatlar innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, texnologik modernizatsiya va innovatsion muhitni shakllantirish masalalarini tizimli ravishda kun tartibiga olib chiqqan. Mazkur hujjatlar kichik biznes innovatsiyalariga "alohida sektor" sifatida emas, balki milliy innovatsion ekotizimning tarkibiy bo'g'ini sifatida qarash zaruratini kuchaytiradi.

Adabiyotlarda kichik biznes innovatsiyasi ikki tomonlama baholanadi: bir tomondan, kichik korxonalar moslashuvchanligi, tezkor qaror qabul qilishi va bozor signallariga tez javob bera olishi orqali innovatsiyalarni tez sinovdan o'tkazish imkoniyatiga ega; ikkinchi tomondan esa, resurslar cheklanganligi innovatsion jarayonlarni keng ko'lamda amalga oshirishga to'sqinlik qiladi. Ayniqsa, moliyaviy manbalar, malakali kadrlar va texnologik kompetensiyalarning yetishmasligi kichik biznesda innovatsion "bo'shliq"ning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

So'nggi yillarda raqamli transformatsiya kichik biznesning innovatsion imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim omil sifatida ajralib chiqmoqda. Jumladan, O'zbekistonda kichik va o'rta biznesga raqamli iqtisodiyotning ta'siri tahlil qilingan tadqiqotlar raqamli yechimlar (platformalar, axborot tizimlari, onlayn xizmatlar) tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishi, bozorga chiqish to'siqlarini pasaytirishi hamda boshqaruv samaradorligini oshirishini ko'rsatadi. Biroq mazkur jarayon kadrlar malakasi, texnologik savodxonlik va infratuzilma sifati bilan bevosita bog'liq ekani ham alohida qayd etiladi.

Kichik biznes innovatsiyasini rag'batlantirish bo'yicha adabiyotlarda uch turdagi mexanizm yetakchi sifatida ko'rsatiladi. Jumladan, grantlar, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va soliq yengilliklari innovatsion loyihalarning "xavf" darajasini pasaytirib, kichik biznesning innovatsion faoliyatga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi. O'zbekistonda kichik biznes va mikrofirmalarda innovatsion faoliyat hamda hukumat tashabbuslari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda aynan moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarining roli alohida ta'kidlanadi. Bunda moliyaviy instrumentlardan foydalanish imkoniyati, tanlov jarayonlarining shaffofligi va resurslarning manzilliligi asosiy amaliy muammo sifatida ko'p muhokama qilinadi.

Innovatsion faoliyatni tashkil etish jarayoni faqat resurslar mavjudligi bilan emas, balki boshqaruv jarayonlarining samaradorligi bilan ham belgilanadi, ya'ni: g'oyani aniqlash — saralash — sinovdan o'tkazish — joriy etish — natijani baholash bosqichlarini o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, "innovatsion boshqaruv" va "korxona ichki innovatsion madaniyati" tushunchalari muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiyotlarda kichik biznesda innovatsiya ko'pincha rahbar tashabbusiga bog'lanib qolishi, rejalashtirish, KPI va monitoring kabi tizimli yondashuvlarning yetishmasligi sababli innovatsion natijalarning barqaror bo'lmasligi qayd etiladi. Ushbu xulosalar kichik biznes menejmenti va tashkil etish masalalariga bag'ishlangan ilmiy ishlarda ham uchraydi.

Texnoparklar, biznes-inkubatorlar, konsalting xizmatlari, universitet-biznes hamkorligi hamda startup ekotizimi kichik biznes innovatsiyalarini "tezlashtiruvchi" mexanizmlar sifatida qaraladi. O'zbekiston bo'yicha texnoparklar va STI (science-technology-innovation) parklariga bag'ishlangan UNCTAD tahliliy hisobotlarida infratuzilma va imtiyozlar, boshqaruv modellari hamda siyosiy muammolar (policy issues) keng muhokama qilingan.² Shuningdek, tadbirkorlik ekotizimi bo'yicha analitik tadqiqotlar soliq va tartibga solish muhiti, moliya va institutlar o'rtasidagi muvozanat innovatsion faollikka bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqola adabiyotlarda mavjud yondashuvlarni umumlashtirgan holda, kichik biznesda innovatsion faoliyatni tashkil etish va rag'batlantirish mexanizmlarini kompleks tizim sifatida yoritadi hamda moliyaviy, institutsional va raqamli/infratuzilmaviy omillarning o'zaro uyg'unlashuvi zarurligini asoslaydi.

Tadqiqot natijalari kichik biznes subyektlarida innovatsion faoliyatni tashkil etish va rag'batlantirish mexanizmlarining samaradorligi ularning tashkiliy, moliyaviy va institutsional jihatdan qay darajada rivojlanganligiga bog'liqligini ko'rsatdi. O'rganilgan ilmiy manbalar va amaliy tajribalar asosida kichik biznesda innovatsion faoliyatga ta'sir etuvchi asosiy omillar tizimlashtirildi.

2 O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi. (2022). Innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha yillik hisobot. Toshkent.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy maqolada tadqiqot metodologiyasi kichik biznesda innovatsion faoliyatni tashkil etish va uni rag'batlantirish mexanizmlarini empirik va nazariy jihatdan o'rganishga yo'naltirilgan. Tadqiqot jarayonida ma'lumotlar birlamchi va ikkilamchi manbalar asosida olindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining rasmiy statistika ma'lumotlari, davlat dasturlari va strategik hujjatlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari, shuningdek, mahalliy va xorijiy ilmiy maqolalar va monografiyalar tahlil qilindi. Bundan tashqari, kichik biznes subyektlarida innovatsion faoliyat holatini baholash uchun mavjud ochiq ma'lumotlar va tahliliy sharhlardan foydalanildi. Olingan ma'lumotlarni tahlil qilishda tizimli yondashuv, mantiqiy taqqoslash, iqtisodiy-statistik tahlil, shuningdek, regressiya va grafik tahlil usullari qo'llanildi. Ushbu metodlar kichik biznes innovatsion faolligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda rag'batlantirish mexanizmlarining samaradorligini baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olingan natijalar kichik biznesda innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalasi kompleks yondashuvni talab etishini tasdiqlaydi. Innovatsion faoliyatni faqat moliyaviy resurslar orqali rag'batlantirish qisqa muddatli samara berishi mumkin, biroq barqaror innovatsion rivojlanishni ta'minlash uchun tashkiliy va institutsional mexanizmlarni rivojlantirish zarur.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, kichik biznes subyektlarida innovatsiyalar ko'pincha rahbar tashabbusi asosida amalga oshiriladi. Bu holat innovatsion faoliyatning tizimli tus olmasligiga olib keladi. Shu sababli innovatsion faoliyatni rejalashtirish, monitoring qilish va baholash mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.


Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat tomonidan yaratilayotgan rag'batlantirish mexanizmlari kichik biznesning innovatsion faolligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Biroq ushbu mexanizmlarning samaradorligi ularning tadbirkorlik subyektlari ehtiyojlariga mosligi bilan belgilanadi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida innovatsiyalarni joriy etish kichik biznes uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. Raqamlashtirish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, bozor axborotiga tezkor kirishni ta'minlash hamda yangi biznes-modellarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli innovatsiyalarni joriy etishda kadrlar malakasi va texnologik savodxonlik muhim omil bo'lib qolmoqda.

Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznesda innovatsion faoliyatni rivojlantirish davlat, xususiy sektor va ilmiy muassasalar o'rtasidagi samarali hamkorlikni talab etadi. Bunday hamkorlik innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, bilim almashinuvi va innovatsion mahsulotlar yaratish jarayonlarini jadallashtiradi.

1-rasmda keltirilgan regressiya koeffitsiyentlari kichik biznes innovatsion faolligiga ta'sir etuvchi omillar orasida inson kapitali (HUM) eng yuqori ta'sir kuchiga ega ekanligini ko'rsatadi. Ushbu omilning yuqori qiymati xodimlarning bilim darajasi, malaka oshirish va intellektual salohiyat innovatsion jarayonlarning asosiy drayveri ekanligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi (DIG) va moliyaviy qo'llab-quvvatlash (FIN) ham innovatsion faollikka sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat kichik biznesda innovatsiyalarni rivojlantirishda raqamlashtirish va investitsiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik muhim ekanligini anglatadi (1-rasm).



1-rasm. Kichik biznes innovatsion faolligiga ta'sir etuvchi omillar³



1-rasmdagi tahlil shuni ko'rsatadiki, innovatsion faoliyatni rivojlantirishda inson kapitaliga yo'naltirilgan siyosat ustuvor yo'nalish bo'lishi lozim. Moliyaviy rag'batlantirish innovatsion jarayonlarni boshlash uchun zarur bo'lsa-da, bilim va malaka bilan qo'llab-quvvatlanmaganda uzoq muddatli samara bermaydi.⁴

Institutsional qo'llab-quvvatlash (INS) koeffitsiyentining nisbatan pastligi mavjud innovatsion infratuzilma va davlat dasturlarining kichik biznes ehtiyojlariga to'liq moslashmaganligini ko'rsatadi. Bu esa innovatsion siyosatni yanada manzilli va moslashuvchan qilish zarurligini anglatadi.

Umuman olganda, grafik natijalari kichik biznes innovatsion rivojlanishini ta'minlashda inson kapitali + raqamli transformatsiya + moliyaviy rag'batlantirish kombinatsiyasi eng samarali model ekanligini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, mazkur bo'limda kichik biznesda innovatsion faoliyatni tashkil etish va rag'batlantirish mexanizmlarini amaliy nuqtayi nazardan tizimlashtirish, ularning ta'sir kanallari hamda kutiladigan natijalari chuqur tahlil qilinadi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznesda innovatsion faollikning oshishi birgina moliyaviy resurslar bilan emas, balki boshqaruv tizimi, inson kapitali, infratuzilma va bozor bilan bog'lanish omillarining uyg'unligi orqali yuzaga keladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, kichik biznesda innovatsiya muvaffaqiyati ko'p hollarda "g'oya"ning mavjudligiga emas, balki uni jarayon sifatida boshqarishga bog'liq. Amaliy jihatdan innovatsion faoliyat quyidagi bosqichlarda samarali tashkil etilganda natija beradi:

1. G'oyalarni topish (mijoz muammolari, bozordagi bo'shliq, raqobatchilar tahlili);
2. Saralash (bozor hajmi, xarajatlar, risk va foyda);
3. Sinov (pilot/MVP) — kichik ko'lamda test va tezkor fikr-mulohaza;
4. Joriy etish (ishlab chiqarish yoki servis jarayoniga integratsiya);
5. Baholash (sotuv hajmi, tannarx, sifat, mijoz qoniqishi);
6. Masshtablash (hudud yoki bozor segmentlarini kengaytirish).

Ushbu zanjirda "uzilishlar" (masalan, pilot bosqichining yo'qligi yoki baholash mezonlarining mavjud emasligi) innovatsiyani tasodifiy tashabbusga aylantirib, barqaror natijalarni pasaytiradi.

Kichik biznesda innovatsiyalarni rag'batlantirish mexanizmlari amalda uchta asosiy ta'sir kanali orqali natija beradi:

- resurs kanali: innovatsiya uchun vaqt, mablag', texnika va bilim ajratiladi;
- motivatsiya kanali: rahbar va xodimlarning innovatsiyaga qiziqishi oshadi;
- bozor kanali: innovatsiya mijoz talabi bilan bog'lanib, sotuvga aylanadi.

Quyidagi jadval mexanizmlar va ularning ta'sir kanallarini "natijaga olib boruvchi yo'l" sifatida aks ettiradi(1-jadval).

1-jadval. Innovatsion rag'bat mexanizmlari va natijaga ta'sir yo'nalishlari⁵

Mexanizm guruhi	Asosiy vositalar	Ta'sir kanali	Kutiladigan natija
Moliyaviy	Imtiyozli kreditlar, grantlar, subsidiyalar, soliq yengilliklari	Resurs	Innovatsion loyihalar soni oshadi, risk kamayadi
Tashkiliy-boshqaruv	Innovatsiya rejasi, KPI, ichki "g'oya banki", loyiha jamoalari	Resurs + motivatsiya	Jarayon tizimlashadi, vaqt yo'qotishlar kamayadi
Inson kapitali	Malaka oshirish, treninglar, ustoz-shogird tizimi, bilim almashish	Resurs + motivatsiya	Sifatli g'oya va yechimlar ko'payadi
Institutsional/infratuzilma	Texnoparklar, inkubatorlar, konsalting, universitet-biznes hamkorligi	Resurs + bozor	Texnologiyalar va bozorga chiqish tezlashadi
Raqamli mexanizmlar	CRM/ERP, e-commerce, raqamli marketing, analitika	Bozor	Sotuv va mijoz qoniqishi oshadi, xarajatlar kamayadi

Jadvaldan ko'rinadiki, kichik biznes innovatsiyalarining samaradorligi mexanizmlarning alohida qo'llanishida emas, balki ularning kombinatsiyasida ortadi. Masalan, faqat kredit ajratish innovatsiyani avtomatik ravishda muvaffaqiyatli qilmaydi; agar samarali menejment va bozorga chiqish strategiyasi mavjud bo'lmasa, kredit oddiy aylanma mablag' sifatida "yutilib ketishi" mumkin.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, innovatsion natijani faqat "yangilik" bilan o'lchash yetarli emas. Kichik biznes uchun innovatsiya natijasi — bu iqtisodiy va bozor ko'rsatkichlariga aylangan yangilikdir. Shu sababli baholash mezonlarini to'rtta asosiy blok asosida yuritish maqsadga muvofiq hisoblanadi(2-jadval).

4 Tidd, J., Bessant, J. Managing Innovation. <https://www.wiley.com/en-us/Managing+Innovation-p-9781119378143>

5 Muallif ishlanmasi

2-jadval. Kichik biznes innovatsion natijalarini baholash ko'rsatkichlari⁶

Blok	Ko'rsatkichlar (misollar)	Mazmuni
Moliyaviy samaradorlik	Tannarx pasayishi, foyda marjasi, investitsiya qaytimi	Innovatsiya real iqtisodiy foyda bergan-bermaganligi
Bozor natijalari	Sotuv hajmining o'sishi, mijozlar soni, yangi segmentga kirish	Innovatsiya bozorda talab topgan-topmaganligi
Jarayon samaradorligi	Ishlab chiqarish vaqti qisqarishi, brak kamayishi, logistikaning optimallashtirishi	Ichki operatsion yutuqlar
Innovatsion salohiyat	Yangi g'oyalar soni, xodimlar takliflari, treninglar	Kelajak innovatsiyalari uchun "zaxira"

Kichik biznes uchun eng muhim jihat — innovatsiyaning tezda natijaga aylanishidir. Shu sababli "jarayon samaradorligi" va "bozor natijalari" bir-birini to'ldirishi lozim: ichki samaradorlik bozor qiymatiga (sifat, tez yetkazib berish, arzonroq narx) aylanmasa, innovatsiya strategik foyda bermaydi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes innovatsiyasidagi muammolar ko'pincha "moliyaviy resurslarning yetishmasligi"dan ko'ra tizim va boshqaruv mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi bilan izohlanadi. Eng ko'p uchraydigan cheklovlar quyidagilardan iborat(3-jadval).

3-jadval. Kichik biznes innovatsiyalaridagi muammolar va yechimlar xaritasi⁷

Muammo	Ildiz sababi	Amaliy yechim (mexanizm)
Innovatsiya tasodifiy tus oladi	Strategiya va KPI mavjud emas	Innovatsiya rejasi + KPI + monitoring
Loyiha "boshlanib qoladi"	Pilot bosqichi va resurs taqsimoti yo'q	MVP/pilot, "kichik byudjet — tez sinov" yondashuvi
Kadrlar tayyor emas	Malaka va texnologik savodxonlik past	Treninglar, konsalting, ustoz—shogird tizimi
Bozor topilmaydi	Mijoz muammosi yetarli o'rganilmagan	Customer development, raqamli marketing va analitika
Moliyaviy risk yuqori	Kafolat mexanizmlari mavjud emas	Sug'urta yoki kafolat fondlari, grant + co-finance
Infratuzilma yetishmaydi	Hamkorlik darajasi past	Inkubatorlar, texnoparklar, universitet—biznes kooperatsiyasi

Eng muhim xulosa shundan iboratki, kichik biznesga innovatsiya bo'yicha yordam ko'rsatishda "faqat moliyaviy mablag" emas, balki bilim, boshqaruv va bozor bilan bog'lovchi vositalar ham yagona paketda taqdim etilgandagina yuqori samaradorlikka erishiladi.

Tahlil asosida kichik biznesda innovatsion faoliyatni kuchaytiruvchi amaliy model sifatida "5K" yondashuvi taklif etiladi:

1. Kadr — bilim va malaka (treninglar, kompetensiyalarni rivojlantirish);
2. Kredit/kapital — moliyalashtirish va resurslar;
3. Korporativ boshqaruv — jarayonlar, KPI, loyiha boshqaruvi;
4. Kooperatsiya — universitetlar, texnoparklar va yirik korxonalar bilan hamkorlik;
5. Kommersiyalashtirish — bozorga chiqarish, sotuv, marketing va servis.

Mazkur model innovatsion faoliyatni "g'oya"dan "iqtisodiy natija" gacha olib boradigan tizim sifatida talqin etadi va tahlil natijalariga ko'ra quyidagi xulosalarni tasdiqlaydi:

— innovatsion faollikni oshirishda eng muhim shart tashkiliy tizim (rejalashtirish, KPI, baholash) va inson kapitali (ko'nikma va kompetensiyalar) hisoblanadi;

— moliyaviy rag'batlar innovatsiyani boshlashga yordam beradi, biroq natijani kafolatlamaydi, natijaga erishish uchun bozor bilan bog'lanish va joriy etish mexanizmlari zarur;

— raqamli yechimlar kichik biznes innovatsiyalarida "tez natija" beradigan yo'nalish bo'lib, xarajatlarni kamaytirish va sotuv hajmini oshirishga xizmat qiladi;

— infratuzilma va institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlari kichik biznesni innovatsion ekotizimga integratsiyalash orqali texnologiya va bozorga chiqish jarayonlarini tezlashtiradi.

⁶ Muallif ishlanmasi

⁷ Usmonov, D. A. (2021). Raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish. Iqtisodiy taraqqiyot, 5, 22–30.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur maqolada kichik biznesda innovatsion faoliyatni tashkil etish va uni rag'batlantirish mexanizmlarining nazariy hamda amaliy jihatlari har tomonlama tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida kichik biznes subyektlarining barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlash innovatsion faoliyatni tizimli va uzluksiz ravishda tashkil etish bilan bevosita bog'liqdir. Innovatsiyalar kichik biznes uchun nafaqat texnologik yangilanish, balki boshqaruv, marketing va tashkiliy jarayonlarni takomillashtirishning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

O'tkazilgan tahlillar kichik biznesda innovatsion faoliyatni rivojlantirishda tashkiliy va rag'batlantiruvchi mexanizmlar alohida ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Innovatsion g'oyalarni aniqlash, ularni tanlash va amaliyotga joriy etish jarayonlarining samarali tashkil etilishi kichik biznes subyektlarining moslashuvchanligini oshiradi hamda bozor sharoitlarida barqaror faoliyat yuritish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, innovatsion muhitni shakllantirishda rahbariyatning strategik qarashlari va tashabbuskorligi muhim omil hisoblanadi.

Maqolada innovatsion faoliyatni rag'batlantirish mexanizmlarining moliyaviy va nomoliyaviy shakllari tahlil qilindi. Moliyaviy rag'batlantirish vositalari innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratgan bo'lsa, nomoliyaviy rag'batlantirish mexanizmlari xodimlarning ijodiy faolligi va tashabbuskorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ta'lim va malaka oshirishga yo'naltirilgan rag'batlar kichik biznesda innovatsion salohiyatni uzoq muddatli rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi samarali hamkorlik muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Davlat tomonidan yaratilayotgan institutsional va infratuzilmaviy shart-sharoitlar kichik biznes subyektlarining innovatsion imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, biznes-inkubatorlar, texnoparklar va konsalting xizmatlari orqali innovatsion jarayonlarni qo'llab-quvvatlash kichik biznes rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kichik biznesda innovatsion faoliyatni tashkil etish va rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish iqtisodiy rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi. Innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan kompleks yondashuv kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari kichik biznesni innovatsion rivojlantirish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqishda, shuningdek, kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). Innovatsion rivojlanish strategiyasi. Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi. (2022). Innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha yillik hisobot. Toshkent.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2023). O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivoji. Toshkent.
4. Abdurahmonov, Q. X. (2018). Innovatsion iqtisodiyot asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot.
5. To'xtasinov, R. A. (2019). Kichik biznesda innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 3, 45–52.
6. Rahimov, O. R. (2019). O'zbekistonda innovatsion infratuzilmani rivojlantirish istiqbollari. Innovatsion rivojlanish, 2, 19–26.
7. Karimov, A. M. (2020). Tadbirkorlik faoliyatida innovatsiyalarning iqtisodiy ahamiyati. Moliyaviy tahlil, 2, 33–39.
8. Islomov, U. T. (2020). Kichik biznes subyektlarida raqobatbardoshlikni oshirish yo'llari. Biznes–ekspert, 3, 41–47.
9. Usmonov, D. A. (2021). Raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish. Iqtisodiy taraqqiyot, 5, 22–30.
10. Saidov, S. S. (2021). Kichik biznesni rivojlantirishda davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlari. Bozor, pul va kredit, 4, 28–35.
11. Mirzayev, F. A. (2021). Kichik biznesda innovatsion muhitni shakllantirish. Iqtisodiy islohotlar, 6, 38–44.
12. Xudoyberdiyev, B. E. (2022). Innovatsion faoliyatni rag'batlantirishning institutsional asoslari. Iqtisodiyot va ta'lim, 1, 64–71.
13. Mahmudov, J. B. (2022). Innovatsion boshqaruv tizimlarining iqtisodiy samaradorligi. Zamonaviy iqtisodiyot, 4, 55–63.
14. Qodirov, N. X. (2022). Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish. Moliya va bank ishi, 2, 49–56.
15. Sharipov, E. S. (2023). Tadbirkorlik subyektlarida innovatsion faollikni oshirish yo'llari. Ilmiy iqtisodiyot, 1, 71–78.
16. Schumpeter, J. A. (1934). The Theory of Economic Development. Harvard University Press.
17. Drucker, P. F. (1985). Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. Harper & Row.
18. Porter, M. E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. Free Press.
19. Lundvall, B. Å. (1992). National Systems of Innovation: Toward a Theory of Innovation and Interactive Learning. Pinter Publishers.
20. Tidd, J., & Bessant, J. (2018). Managing Innovation: Integrating Technological, Market and Organizational Change. Wiley.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
